

**OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA MILLIY IFTIXOR
TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI**

*Baxtiyorova Mumina Odiljon qizi
Qo 'qon DPI magistranti*

Annotatsiya. **Mazkur maqolada** oliy ta'lif muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari hususida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek maqolada milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirishda ahamiyat berilishi lozim bo'lgan jihatlarga ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Milliy g'urur, milliy iftixor, pedagogik jarayon, vatanparvarlik, barqarorlik, tinchlik, fidokorlik, talaba.

**НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ
ЧУВСТВА НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ У СТУДЕНТОВ
ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ**

Бахтиёрова Мумина Одилжон кызы
Магистрант Кокандской ГПИ

Абстрактный. В статье изложены некоторые размышления о научно-педагогических основах формирования чувства национальной гордости у студентов высших учебных заведений. В статье также затрагиваются аспекты, которым следует придавать значение в формировании чувств национальной гордости и национальной чести.

Ключевые слова. Национальная гордость, национальная честь, педагогический процесс, патриотизм, стабильность, мир, бескорыстие, студент.

**SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL BASES OF FORMING A SENSE OF NATIONAL
PRIDE IN STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

Bakhtiyorova Mumina Odiljon kizi
Master's student of the Kokand SPI

Annotation. This article presents some thoughts on the scientific-pedagogical foundations of forming a sense of national pride in students of higher educational institutions. The article also touches upon the aspects that should be given importance in forming a sense of national pride and national pride.

Keywords. National pride, national pride, pedagogical process, patriotism, stability, peace, selflessness, student.

Kirish. Talabalarda milliy iftixor tuyg‘usini pedagogik jihatdan shakllantirish ularda Vatanparvarlikni, yurt tinchligi va xalqning osoyishtaligini ta’minlashga undaydi. Talabalarda o‘zi yashayotgan davlatning tinchligi hamda xavfsizligini barqarorligini ta’minlashda jonbozlik ko‘rsatish milliy iftixor tuyg‘usini amaliy ifodasi sifatida ko‘rinadi. Turli millat va elatga tegishli fuqarolarni o‘rtasida inoqlikni yuzaga kelishida hissa qo‘sishi millat orasida o‘zining qadr-qimmatini anglashini ta’minlaydi.

Talabalarda milliy iftixor tuyg‘usini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat mohiyatini yoritishda “rivojlanish”, “tarbiyalash”, “shakllantirish”, “omil”, [1.18.] “pedagogik ta’sir”, “milliy g‘urur”, “milliy iftixor” va [2.41.] “milliy o‘zlikni anglash” kabi tushunchalar tayanch tushunchalar sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot muammosini ijobjiy hal etishda tushunchalarning mazmunini to‘laqonli anglab olish taqozo etiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ko‘pincha tegishli pedagogik adabiyotlarda “shakllanish”, “rivojlanish”, “tarbiyalash”, ba’zi manbalarda keltirilishicha “ijtimoiylashuv” iboralarining alohida mantiqqa mosligi ta’kidlanadi. “Shakllantirish” va “rivojlantirish” iboralarining o‘zaro bir-birining to‘ldiruvchi iboralar ekanligi yuzasidantalqinlar ham mavjud. Ularga ko‘ra, shakllantirish jarayoni rivojlantirish va rivojlantirish jarayoni esa shakllantirish asosida sodir bo‘lishi tushunchasi ilgari suriladi.

Shaxs tarbiyasini amalga oshirish tarbiyani har tomonlama puxta tashkil etish bilan, shaxsda ma’naviy-axloqiy, irodaviy va insoniy sifatlarni barqaror yo‘lga qo‘yadi. Tarbiya o‘z navbatida ijtimoiy faoliyatda umumiyligi va muhim kategoriya sanaladi. Shuningdek u ijtimoiy hodisa zamirida bir qator xususiyatlarga ega. Masalan, ajodolar merosi asosida yig‘ilgan tajribalarni yosh avlodga yetkazish va mavjud bilimlarni egallash, insonni sog‘lom rivojlanishi, ongni yetuk jixtdan taraqqiy etishi kabi mazmunni o‘zida aks ettiradi.

Tahlil va natijalar. I.S.Maren’ko shaxsning tarbiyalanganlik darajasi turli faoliyat va fe’l-atvor mazmunida namoyon bo‘ladigan o‘qishga, mehnatga, kishilarga, atrof-muhitga munosabati orqali belgilanishiga urg‘u beradi. [3] N.I.Boldirevning fikricha, shaxsning tarbiyalanganlik darajasi barqaror xulq-atvor ko‘nikmasida, o‘quvchining xatti-harakati, muomalasi va ularning nuqtai nazarida vujudga keladi. Mazkur daraja shaxsning fe’l-atvorida sodir bo‘lgan ma’lum sifat o‘zgarishibilan belgilanadi.

Ma’lum sifatlarning tarbiyalanganlik darajasini quyidagi shartlar asosida aniqlash maqsadga muvofiq ekanligini ta’kidlovchi yondashuvlar ham mavjud:

- shaxsning alohida sifatlarini ajratib ko‘rsatish, ularni namoyish etish (N.I.Monaxov, M.I.Shilova);
- shaxs tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat yo‘nalishlari (L.I.Bojovich,

A.V.Zasimovskiy);

-shaxs faoliyati jarayonining mohiyatini o‘rganish (O.S.Bogdanov,

V.P.Petrova);

-yaxlit jarayon, kundalik yoki yakuniy natijalarning ko‘rsatkichlari (O.Musurmonova).

O‘liy o‘quv yurtlari talabalarida milliy iftixor tuyg‘usining rivojlantirish jarayonida tushunchaning mohiyatini tushunish talab qilinadi. Shu sababli manbalarda yoritish holatini tahlil qilish asosidatalabalarda milliy iftixor tuyg‘usini rivojlantirishda klaster modelidan foydalanish darajasini aniqlashga yordam beruvchi mezonlarni ishlab chiqishga urinib ko‘ramiz. A.Ibrohimov, X.Sultonov va N.Jo‘rayevlarning fikrlariga ko‘ra, “shaxs g‘ururi –bu faxr”, “milliy g‘urur –bu iftixor” bo‘lib, ular garchi bir-birlariga yaqin ma’nolarni anglatsada, bir vaqtning o‘zida bir-biridan ma’lum darajada farqlanuvchi tushunchalar ekanligi ta’kidlanadi.

“Milliy g‘urur (iftixor) –shaxsnинг ijtimoiy tuzilmalarda o‘zlikni anglashdagi xarakatlari ajdodlar qoldirgan madaniy va moddiy merosga, sivilizatsiyaga qo‘sghan hissasi, boshqa millat xalqi oldida qadrlanish, obro‘ni oshishida faxrlanish tuyg‘usini ifodalovchi tushuncha”, deb ta’rif beriladi manbalarda. Mazkur tuyg‘uni shaxsnинг ma’lum xulq-atvorida ko‘rish mumkin: milliy yutuqlarni qo‘lga kiritish, obro‘dan g‘ururlanish, kishilar muammolariga e’tiborsiz qaramaslik; el-yurt va millatining kelajagi uchunfidoiylik; millatning moddiy-ma’naviy me’rosini qadrlash; xalqning urf-odatlarini, marosimlarini hurmat qilish, moddiy va madaniy boyitish yuzasidan qayg‘urish; mehr-muhabbatni kishilar oldida namoyon qilishdir.

Xulosa. Milliy iftixor o‘zi mansub bo‘lgan millatga hos o‘zini tustishi, kishilik ravnaqi, yuksalish bilan kurashib emas, boshqa millatga mansub kishilarni hurmat-ehtiromini joyiga qo‘yishni ham talab etadi. Bunday hisga ega ma’naviyatli kishi milliylikni anglay olishi, haqiqiy milliy iftixorni millat ajratishdan farqlay oladi. O‘zga millatlarni nafsoniyati va hurmatini pastga urmaydi. Shuningdek, milliy iftixor tuyg‘usini egallagan insonda milliy o‘zlikni tushunish his-tuyg‘usi shakllanib boradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1.Калекин А.А. Патриотическое воспитание курсов военного вуза на основе культурологического похода // к.п.н.диссертация авторефератов. Мойкоп. 2019.

2.Kurbanov R.Yu. “Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiya-lash–da milliy g‘oyaning o‘rni” // p.f.n. dissertatsiya. Toshkent. 2008.

3.Мирқосимова М.М. Таалабаларда аналитик тафаккурни ривожлантириш технологияси //Scientific Bulletin of Namangan State University. –2020. –T. 2. –No. 4. –C. 478-481.